

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТИЗИМИДА ТА'ЛИМ СИФАТИНИ НАЗОРAT QILISHDA RAQAMLI PLATFORLANDAN FOYDALANISH

Toshpulatova Sayyora Arabboyevna

Andijon viloyati Marhamat tumani 28-son DMTT direktori

Annotsiya: ushbu maqolada maktabgacha ta'lim sohani zamonaviy yondashuvlar asosida raqamlashtirish va ish unmdorligini oshirish, hamda ta'lim sifatini oshirish va nazorat qiluvchi platformalar haqida qisqacha ma'lumot berilgan.

Аннотация: В данной статье представлен краткий обзор цифровизации сферы дошкольного образования на основе современных подходов и повышения производительности труда, а также улучшения и контроля качества образования.

Abstract: This article provides a brief overview of digitalization of the preschool education sector based on modern approaches and increasing work productivity, as well as improving and monitoring the quality of education.

Kalit so'zlar: raqamlashtirish, ta'lim sohasi, yondashuvlar, boshqaruv, ish unmdorligi, raqamli texnologiya, takomillashtirish, zamonaviy ta'lim.

Ключевые слова: цифровизация, образование, подходы, управление, производительность, цифровые технологии, совершенствование, современное образование.

Key words: digitization, education, approaches, management, productivity, digital technology, improvement, modern education.

“Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va aholining kundalik hayotiga keng joriy etishni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.





Boshqarishda axborot tizimining joriy etishdan asosiy maqsad – qog‘ozbozlikni oldini olish, markazlashgan avtomatlashtirilgan tizimni yo‘lga qo‘yish, statistik ma'lumotlarning to‘g‘riligini ta'minlash, tizimda qonun buzilishlar va korrupsiyani oldini olish, ma'lumotlarni raqamlashtirish, shafoflikni ta'minlashdan iborat.

Boshqarishda axborot tizimi yordamida Maktabgacha ta'lim vazirligi tizimdagi kamchiliklarni va mummolarni aniqlaydi va oldish hozirgi kunda dolzarb hisoblanadi.. Axborot texnikasi ilg‘or boshqarish tizimlarining moddiy bazasini tashkil etadi. Boshqarishda axborot texnikasidan kuchsiz foydalanish mehnat unumdorligining va boshqaruvchi shaxslar ish samaradorligining pasayishiga, tez hal qilinishi zarur bo‘lgan masalalarni yechishda yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan ushlanib qolishlarga, ko‘pincha esa kerakli ma'lumotlar yo‘qligi sababli ularni noto‘g‘ri hal etishga va boshqa muhim salbiy oqibatlariga olib keladi.







Axborot texnologiyalari sohasidagi kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash tizimining samaradorligini oshirish bo'yicha ko'rilayotgan choralar davlat organlari va tarmoq tashkilotlarini malakali IT-mutaxassislar bilan ta'minlash uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarishda "Bolalar bog'chasi" dasturidan foydalanish boshqaruvni avtomatlashtirish, elektron tizimga o'tkazish hamda qog'ozbozlikni kamaytirish, statistik ma'lumotlarni haqqoniyligini ta'minlash maqsadida joriy etilgan.

"Bolalar bog'chasi" dasturining amaliyotga tadbiiq etilishdan maqsadi:

-  Korrupsiyani yo'q qilish.
-  Qog'ozbozlikning oldini olish.
-  Markazlashgan avtomatlashtirilgan tizimga o'tish.
-  Statistik ma'lumotlarning to'g'riligini ta'minlash

"Bolalar bog'chasi" dasturining vazifalari:

-  Ota-onalar farzandlarini onlayn navbatga qo'yish va joylashtirish.
-  MTTlarga tabiyalanuvchilarni onlayn qabul qilish.
-  MTTlar faoliyatini nazorat qilish.
-  Tizimga xodimlar va bolalarning ma'lumotlarini qamrab olish.

Zamonaviy ta'lim tizmi bugungi kunda o'zgarayotgan va rivojlanayotgan bir pallada mazkur tizimda an'anaviy o'qitish usullari o'rniga texnologiyalardan keng foydalaniladi. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan barcha xodimlar maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutining my.mdomoi.uz elektron manzilda yotuvchi platformasi tarkibidagi partfoliosidan foydalanib kilishmoqda. Ilm-fanni jadal rivojlantirish jarayonida ko'plab korporatsiyalar yangi texnologiyalardan foydalangan holda ishlab chiqarishning barcha darajalarida ishlashga tayyor bo'lgan xodimlarni talab qiladi va maxsus ko'nikmalarga ega bo'lmagan xodimlarga bo'lgan ehtiyoj ortda qolmoqda. Albatta, bu muammolarni hal qilish uchun ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish zarur. Hozirgi kunda bbit.uz "Bollalar bog'chasi tizimi" dasturi orqali barcha tarbiyalanuvchilar bilan ishlash qulaylik yaratib kelmoqda bu esa o'z navbatida ishdagi samaradorlikni oshirib boradi. Ta'lim texnologiyalari ilovalari davomatni kuzatish va ishlash monitoringi kabi kundalik operatsiyalarni avtomatlashtirish yoki qisman avtomatlashtirish orqali ko'p vaqt va energiyani tejash imkonini beradi. Raqamli texnologiyalar talabalarga texnologiyadan mas'uliyatli va strategik foydalanishni o'rgatadi va bu ularga qaror qabul qilishda va o'z-o'zini intizomni rivojlantirishda yordam beradi.

Yagona portal maqsad va vazifalari:

Yagona portal davlat organlari tomonidan ko'rsatiladigan, shu jumladan pulli asosda ko'rsatiladigan interaktiv davlat xizmatlaridan erkin foydalanishning yagona nuqtasi hisoblanadi.

+ foydalanuvchilarga davlat organlariga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilish uchun imkoniyat berish;

+ foydalanuvchilarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi boshqa loyihalar bilan integratsiyalash;

+ foydalanuvchilarning davlat organlari bilan o'zaro hamkorligi samaradorligini oshirish;

+ davlat organlariga murojaat qilinganda foydalanuvchilar uchun byurokratik to'siqlarni qisqartirish va ularni bartaraf etish;

+ "Elektron hukumat" tizimini yanada rivojlantirish va davlat boshqaruviga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishda ko'maklashish.

Ta'lim va tarbiyaning asosi, poydevori bu maktabgacha ta'lim hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda zamonaviy, ilmiy, malakali kadrlar tayorlash yoshlarni yuksak ma'naviyat egalari sifatida tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratgan edilar. Mana shunday davlatni yuksak davlatlar qatoriga chiqarish uchun harakat qilayotgan bir paytda, davlatni orqaga tortib turadigan g'araz niyatli faqat o'z manfaatlarini o'ylaydigan, davrimda mazza qilib yashab qolay qobilida ish ko'radigan insonlar oramizda afsuski yo'q emas. Mamlakatimiz o'z oldiga qo'ygan strategik maqsadlarga erishishda salohiyatli rahbar kadrlar tayyorlash asalasi birini o'rnida turadi. Bugungi kunda boshqaruvda yosh kadrlarning yetakchilik salohiyatini yuksaltirish va bir vaqtning o'zida xalqimizga xos axloqiy qadriyatlarni o'rgati sh boshqaruvning ta'lim tizimi oldiga qo'ygan zamon talabidir.



Ta'lim tizimining hozirgi holati noan'anaviy ta'lim texnologiyalarining roli ortib borayotgani bilan tavsiflanadi. Ta'lim oluvchi tomonidan ularning yordami bilan bilimlarni o'zlashtirish an'anaviy texnologiyalarga qaraganda ancha tezdir. Ushbu texnologiyalar bilimlarni rivojlantirish, egallash va tarqatish xarakterini o'zgartiradi, o'rganilayotgan fanlarning mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish, uni tezda yangilash, samaraliroq o'qitish usullarini qo'llash, shuningdek, har bir kishi uchun ta'lim olish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi. **Raqamli texnologiyani o'zi nima degan savolga quyidagicha javob beramiz:** bu – ta'lim

berishda bir zamonaviy shakli bo‘lib. unda masofaviy ta‘lim va boshqarishning asosiy faktori sifatida raqamli ko‘rinishdagi katta ma‘lumotlar majmui va ularni qayta ishlash jarayoni xizmat qiladi. Olingan natijalarni amaliyotda ishlatish ta‘limni raqamlashtirish orqali yuritish shakllariga nisbatan ancha katta samaradorlikka erishishga imkon beradi.

Hulosa qilib shuni aytish lozimki bugungi kunda barcha sohani hamda barcha tashkilotlarni boshqarishning innavatsion usullari diganda bizning ko‘z oldimizga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llagan holda boshqaruv tizimini joriy etilganligini ko‘rishimiz mumkun bo‘ladi. Boshqarish tizimlarining moddiy bazasini tashkil etish, Boshqarishda axborot texnologiyalaridan kuchsiz foydalanish mehnat unumdorligining va boshqaruvchi shaxslar ish samaradorligining pasayishiga, tez hal qilinishi zarur bo‘lgan masalalarni yechishda yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan ushlanib qolishlarga, ko‘pincha esa kerakli ma‘lumotlar yo‘qligi sababli ularni noto‘g‘ri hal etishga va boshqa muhim salbiy oqibatlariga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.
2. Tillayev A.I. Axborot texnologiyalari kurslari bo‘yicha elektron darsliklar yaratish va ularni ta‘limda qo‘llash //Amaliy matematika va informatsion texnologiyalarning dolzarb muammolari –Al-xorazmiy xalqaro ilmiy anjuman.
3. Murodov Sh.N. Ta‘limda raqamli texnologiyalardan foydalanish – davr talabi. Pedagoglar jurnali / <https://www.pedagoglar.uz/index.php/ped/article/view/871>
4. M.M.Xolmuxammedov. “Professional ta‘lim tizimini zamonaviy yondashuvlar asosida modernizatsiya qilish”. Uzluksiz ta‘lim ilmiy-uslubiy jurnal. 2021. 6-son.